МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

№ 3/1 2025

гуманитарные науки
естественные науки
технические науки

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA AXLOQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING RAQAMLI TEXNOLOGIYASI

Mamatova A.M.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani 45-umumiy o‘rta ta’lim maktabida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: raqamli texnologiya, boshlang‘ich sinf, o‘quvchi, axloqiy madaniyat, raqamli texnologiya, amaliy tizim.
Ключевые слова: цифровые технологии, начальный класс, ученик, этическая культура, цифровые технологии, прикладная система.
Key words: digital technologies, elementary school, textbook, ethical culture, digital technologies, applied system.

РЕЗЮМЕ:
Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirishning raqamli texnologiyasi taxlil etilgan va uning amaliy tizimi taqdim etilgan.
РЕЗЮМЕ:
В статье анализируется цифровая технология формирования нравственной культуры у младших школьников и представлена ее практическая система.
SUMMARY:
The article analyzes the digital technology of the formation of moral culture in younger schoolchildren and presents its practical system.

Boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish jarayonida o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi ham muhim o‘rin tutadi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi PQ-232-sonli “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining tarbiyalanganlik ko‘rsatkichlarini yuksaltirib borish va bundan zamonaviy texnologiyalardan foydalanish vazifalari qo‘yilgan [1]. Mazkur vazifalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirishning raqamli texnologiyasini ishlab chiqishni ham taqozo etadi. Chunki jamiyatimizda raqamli texnologiya asosida rivojlantirish jarayoni kechmoqda. Mazkur

o‘rinda e’tiboringizni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirishning raqamli texnologiya amaliy tizimi masalasi taxliliga tortamiz.

Bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy madaniyat asoslarini ularning o‘zligini anglash, o‘zgalarga axloq qoidalari asosida munosabatda bo‘lish va muomala odabini o‘zlashtirish tashkil qiladi [2;3]. Shu jihatdan axloqiy madaniyatni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirish uchun bugungi kun talablaridan kelib chiqgan holda yondashish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ana shunday yondashuvlardan biri raqamli texnologiyadir [3; 35]. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bugungi kunda axborot-kommunikatsion o‘quv texnik vositalaridan oqilona foydalanmoqda va shu sababli bunday vositalarga tayangan raqamli texnologiyani shakllantirish hamda undan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni qiziqarli va tezkor ravishda shakllantirishga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur o‘rinda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirishning raqamli texnologiya amaliy tizimi taxliliga diqqatingizni tortamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bugungi kun ehtiyojidagi axloqiy madaniyatni shakllantirish uchun turli pedagogik shakllar, metodlar va texnologiyalarga asoslanish dolzarb bo‘lib turibdi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida Axloqiy madaniyatni shakllantirishning raqamli texnologiyasi asoslarini belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur masalada bizning yondashuvimiz quyidagicha:

a) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirishning raqamli texnologik mexanizmlarini ishlab chiqish;

v) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida raqamli texnologiya asosida axloqiy madaniyatni shakllantirish metodikasini yaratish;

s) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida raqamli texnologiya asosida axloqiy madaniyatning shakllanganlik darajasini baholash mezonlarini tarkib toptirish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirishning raqamli texnologik mexanizmlarini ishlab chiqish zaruriyat bo‘lib turibdi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra mazkur mexanizm quyidagilardan iborat: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirish kompyuterli dasturi, shu dastur asosida ishlab chiqilgan o‘quv materiallari, o‘quv materiallarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxsiy kompyuter, planshet va mobil aloqasiga yuklash, tarbiya fani o‘qituvchisining raqamli texnologiya asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirish rejasi va shu reja asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bo‘sh vaqtlarida masofaviy mashg‘ulotlar o‘tkazish amaliyoti, texnik vositalarga yuklangan

oʻquv materiallarini muntazam takomillashtirib borish, vaqti-vaqti bilan maxsus tuzilgan testlar vositasida boshlangʻich sinf oʻquvchilarida axloqiy madaniyatning shakllanganlik darajasini oʻrganib borish va baholash. Bunday mexanizmga asoslanish boshlangʻich sinf oʻquvchilarida axloqiy madaniyatni raqamli texnologiya asosida shakllantirish ishini amalga oshiradi. Buning natijasida boshlangʻich sinf oʻquvchilari va tarbiya oʻquv fani oʻqituvchilari oʻrtasida oʻziga xos vizual muloqot paydo boʻladi. Natijada oʻquvchilarning axloqiy madaniyatni shakllantirish boʻyicha qoʻshimcha imkoniyatlarga ega boʻlinadi. Shu sababli bunday mexanizmlar oliy pedagogik ta'lim jarayonida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilariga oʻqitilishi maqsadga muvofiq boʻladi.

Bugungi kunda boshlangʻich sinf oʻquvchilarida raqamli texnologiya asosida axloqiy madaniyatni shakllantirish metodikasini ishlab chiqish ham zaruriyat boʻlib turibdi [4, 82-89]. Bizning yondashuvimizga koʻra, bunday metodika asoslari quyidagilardan iborat: boshlangʻich sinf oʻquvchilarida shakllantiriladigan asosiy axloqiy madaniyatni belgilab olish, tarbiya fani oʻqituvchilarining raqamli texnologiya asosida boshlangʻich sinf oʻquvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirish rejasini tuzish va shu reja asosida haftaning muayyan kunlarida ta'lim jarayonini amalga oshirish, raqamli texnologiya asosida boshlangʻich sinf oʻquvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirish jarayonida oʻquvchilarning faolligini tarkib toptirish, raqamli texnologiya asosida boshlangʻich sinf oʻquvchilarining axloqiy madaniyatini shakllantirish ishini har oyda maxsus test asosida monitoring qilib borish, raqamli texnologiya asosida boshlangʻich sinf oʻquvchilarining axloqiy madaniyatni shakllantirish ishi toʻgʻrisida har chorakda tarbiya oʻquv fani oʻqituvchilarining maktab pedagogik kengashiga hisobotini taqdim qilib borish. Bunday metodikaga asoslanish boshlangʻich sinf oʻquvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirish ishida raqamli texnologiya imkoniyatlaridan oqilona foydalanish tarkib topadi. Shuni eslatib oʻtish joizki, raqamli texnologiya asosida madaniyatni shakllantirish ishida boshlangʻich sinf oʻquvchilarining oila a'zolari xabardor boʻlishi kerak va ular bu borada oʻquvchilarning belgalangan muddatlarda mashgʻulotlarda vizual ishtirok etishini tashkil qilish vazifasini bajaradi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida raqamli texnologiya asosida axloqiy madaniyatning shakllanganlik darajasini baholash mezonlarini tarkib toptirish ham dolzarb boʻlib turibdi. Bizning yondashuvimizga koʻra, bunday mezonlarining asosiylarini quyidagilar tashkil qiladi: boshlangʻich sinf oʻquvchisining ahloqiy ongi shakllanganlik darajasi, boshlangʻich sinf oʻquvchisining axloqiy madaniyatni tushunish darajasi, boshlangʻich sinf

o‘quvchisida axloqiy madaniyatga amal qilish ko‘nikmasi darajasi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni o‘zlashtirishning dinamik rivojlanib borish darajasi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari axloqiy rivojlanishiga salbiy ta’sirlar ko‘lami darajasi va ularni barataraf etish yo‘llari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sinflar kesimida axloqiy fazilatlarni o‘zlashtirib borish dinamikasi. Mazkur mezonlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy madaniyatini shakllanganlik darajasini o‘rganib va baholab borish raqamli texnologiya imkoniyatlarini namoyon qiladi. Bunday jarayon tarbiya o‘quv fani o‘qituvchilari faoliyatining asosiy qismlaridan birini tashkil etishi uchun omil hisoblanadi. Shu ma’noda bunday mezonlar oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga singdirilishi muhim amaliy ahamiyatga egadir.

Diqqat qilinsa, raqamli texnologiyadan foydalangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy madaniyatni shakllantirish o‘ziga xos mexanizmlar, metodika va mezonlarga asoslanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida raqamli texnologiya asosida axloqiy madaniyat asoslarini shakllantirish uchun uning bir necha mexanizmlari bo‘yicha ilmiy-metodik ishlarni amalga oshirish taqozo etiladi. Bunday ilmiy-metodik ishlarning asosiylari bizningcha, quyidagilardan iborat:

a) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirishning kompyuterli dasturini ishlab chiqish;

b) mazkur dastur asosida tayyorlangan materiallarni kompyuter, planshet, mobil aloqa vositasi kabi o‘quv-texnik vositalariga joylashtirish;

v) ushbu raqamli materiallar asosida boshlang‘ich ta’lim va tarbiya jarayonida o‘quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirishni yo‘lga qo‘yish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirishning kompyuterli dasturini ishlab chiqish muhim amaliy ahamiyatga egadir. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, mazkur dasturning asoslarini quyidagilar tashkil qiladi: axloqiy fazilatlar tasnifi, axloqiy madaniyatni mavzular bo‘yicha tushuntirish rejasi, mavzular rejasi, o‘quvchilarga taqdim etiladigan qo‘shimcha topshiriqlar va turli yo‘naltirishlar, foydalaniladigan jihozlar va metodlar ko‘rsatkichlari, foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yhati. Mazkur tizim asosida kompyuterli dastur shakllantirilib, uning vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirish ishi amalga oshiriladi. Kompyuterli dastur asosida elektron o‘quv matnlari ham tayyorlanadi. Bunday elektron o‘quv materiallarini takomillashtirib borish, ularning ma’lumotlarini yangilash va yangi topshiriqlar berish imkoniyatlari mavjudligini eslatib o‘tish joiz. Shu jihatdan raqamli texnologiya asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining

axloqiy madaniyatini shakllantirish ishida elektron modulli o‘quv ta’minotini tayyorlash va u asosda qo‘shimcha ta’lim jarayonini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kompyuterli dastur asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy madaniyatini shakllantirish vizual ta’lim shakliga asoslanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirish jarayonida kompyuterli dastur asosida tayyorlangan o‘quv materiallari o‘quvchilarning shaxsiy kompyutyeri, planshet va mobil aloqa vositalariga joylashtiriladi. Bunda o‘quv materiallaridan tezkor va qulay foydalanish nazarda tutiladi. Kompyuterli dastur asosida tayyorlangan o‘quv materiallaridan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari istalgan vaqtlarida foydalaniladi va shu sababli mazkur o‘quv materiallarini boshqarish jarayoni tarbiya o‘quv fani o‘qituvchisi tomonidan amalga oshiriladi. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kompyuter, planshet va mobil aloqa vositalari o‘quv nuqtai nazaridan tarbiya o‘quv fani o‘qituvchisi kompyuteriga ulangan bo‘lishi kerak. Bu nazorat emas, aksincha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy madaniyatini maqsadli shakllantirishdir. Axloqiy madaniyat tasnifi berilgan o‘quv materiallaridan boshlang‘ich sinf o‘quvchisi foydalanilayotganda, unda savollar paydo bo‘ladi. Bu savollarga o‘z vaqtida va tezkor ravishda tarbiya o‘quv fani o‘qituvchisining javob berishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatnini shakllantirish maqsadli amalga oshadi.

Raqamli texnologiya asosida kompyuterli dastur vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy madaniyatini shakllantirish muddati va vaqti belgilanmaydi. Bunda asosiy e’tibor boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bo‘sh vaqtlariga qaratiladi va shu sababli bunday ta’lim va tarbiya jarayoni qo‘shimcha mashg‘ulotlar shakliga kiradi. Buning uchun tarbiya o‘quv fani o‘qituvchisi maxsus reja, dastur va vaqt omiliga ega bo‘lishi kerak. Tajribali o‘qituvchilar metodikasi taxlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘p hollarda ular mana shunday kompyuterli dastur vositasida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini kengaytirishda samaraga erishadi. Shu jihatdan kompyuterli dastur imkoniyatlaridan foydalangan holda tarbiya o‘quv fani o‘qituvchilarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllntirish ishini amalga oshirishi samara berishi va bunday mashg‘ulotlar qiziqarli bo‘lishi bilan diqqatni tortadi. Asta-sekin boshlang‘ich sinf o‘quvchisida kompyuterli dastur asosidagi ta’lim jarayoniga bo‘lgan ko‘nikma tarkib topib boradi va buning natijasida ularning bo‘sh vaqtlari ham mazmunli tashkil etiladi. Raqamli texnologiyaning bunday imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Diqqat qilinsa, kompyuterli dastur asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy madaniyatini shakllantirish maqsadliligi, qiziqarliligi va kutilgan samarani berish xususiyatlariga egadir. Bunda tarbiya o‘quv fani o‘qituvchilarining faol bo‘lishi asosiy o‘rin tutadi.

Bunday yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyat asoslarini raqamli texnologik mexanizmlar asosida tezkor shakllantirish imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida raqamli texnologiya asosida axloqiy madaniyatni shakllantirish metodikasini yaratish ham dolzarb bo‘lib turibdi. Bizningcha, bunday metodikaning asoslarini quyidagilar tashkil etishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirish;

b) tarbiya jarayonida ushbu texnologiyadan foydalangan holda axloqiy madaniyatni shakllantirish;

v) tajribali mutaxassislarning yordami asosida raqamli texnologiyaga binoan masofadan turib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy madaniyatini shakllantirish ijtimoiy yordamini yo‘lga qo‘yish.

Raqamli texnologiya asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy madaniyatini shakllantirish metodikasini belgilab olish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyatga egadir. Boshlang‘ich ta’limda o‘qitilayotgan o‘quv fanlari mashg‘ulotlarida raqamli texnologiya asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy madaniyatni shakllantirishga e’tibor berish bu jarayonni tezlashtiradi. Shu jihatdan 1-2 sinflarda o‘quvchilar raqamli texnologiyadan foydalanishga ko‘niktirilishi va 3-4 sinflarda o‘quvchilar dars jarayonida raqamli texnologiya vositasida axloqiy madaniyatni o‘zlashtirishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu jihatdan kompyuterli dastur asosida tayyorlanadigan axloqiy madaniyatni o‘quvchilarda shakllantirishga doir o‘quv materiallari boshlang‘ich sinflar xususiyatini hisobga olishi muhim ahamiyatga ega ekanligini eslatib o‘tish joiz.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida turli tarbiya ishlari amalga oshiriladi. Bunda tarbiyaviy mashg‘ulotlardan tortib tadbirlargacha bo‘lgan jarayonda asosiy e’tibor o‘quvchilarning tarbiyalanishiga qaratiladi. Shu jihatdan raqamli texnologiyaga asoslangan tarbiya jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari kengdir. Buning uchun kompyuterli dastur asosida tayyorlanadigan o‘quv materiallari

multimediyali tasvirlar, turli animatsion shakllar, kichik filmlar va savol-javob topshiriqlariga boy bo‘lishi kerak. Bunda boshlang‘ich ta’limda o‘qitiladigan tarbiya, tasviriy san’at va musiqa madaniyati o‘quv fanlarining o‘qituvchilari hamkorlikda kompyuterli dastur asosida tarbiyaviy materiallarni tayyorlashi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining planshetida yuklangan muayyan bolalar filmining muhokamasini o‘tkazish o‘quvchilarda qiziqish va film qahramonlariga bo‘lgan havas uyg‘otadi. Aynan mana shu holat ularda muayyan axloqiy madaniyatni shakllantirishning amaliy omillaridan biridir. Buning uchun tarbiya o‘quv fani o‘qituvchilari individual metodikaga ega bo‘lishi taqozo etiladi.

Raqamli texnologiyaga asoslangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirish ishida tajribali mutaxassislar yordamidan foydalanish ham muhim metodik tizimdir. Bugungi kunda hududlarda faoliyat yuritayotgan oliy pedagogik ta’lim muassasalariga umumiy o‘rta ta’lim maktablari biriktirilgan. Mana shunday oliy pedagogik ta’lim muassasalarida informatika va axborot texnologiyalari bo‘yicha tajribali professor-o‘qituvchilar faoliyat ko‘rsatmoqda. Mazkur professor-o‘qituvchilarning boshlang‘ich sinflarda mahorat darslari, uchrashuvlari va mashg‘ulotlarni tashkil qilish vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirish ishi samarador bo‘lishini ta’kidlash lozim. Chunki tajribali mutaxassislar masofaviy ta’lim shakli asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan muloqotga kirishib, ularni ahloqiylikka yo‘naltirishda o‘z mahoratlarini namoyish qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ham bunday mashg‘ulotlar qiziqarli hisoblanishini nazarda tutish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

E’tibor berilsa, raqamli texnologiya asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy madaniyatini shakllantirish metodikasi o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Mazkur masalalar bo‘yicha oliy pedagogik ta’lim jarayonida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan maxsus tadqiqotlarga ehtiyoj borligini eslatib o‘tish joiz.

Raqamli texnologiya asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatning shakllanganlik darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish ham dolzarb bo‘lib turibdi. Bu borada quyidagi mezonlarga asoslanish bizning yondashuvimizga ko‘ra, kutilgan samarani beradi.

a) kompyuterli dastur asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllanganlik darajasini o‘rganuvchi ilova dasturini yaratish;

b) mazkur kompyuterli dastur asosida har chorakda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatning shakllanganlik darajasini o‘rganib borish;

v) o‘rganish natijalari asosida o‘quvchilarda axloqiy madaniyatni shakllantirishning yangi tadbirlari ko‘lamini taqdim etish.

Kompyuterli dastur asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatning shakllanganlik darajasini baholab borish muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun aniq mezonlarga asoslanish taqozo etiladi. Shu jihatdan kompyuterli dastur asosida tayyorlangan raqamli texnologiyada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatning shakllanganlik darajasini o‘rganib boruvchi ilova dasturi mavjud bo‘lishi kerak. Bunday ilova dasturida quyidagilar o‘z ifodasini topadi: axloqiy madaniyatni o‘zlashtirganlik darajasini aniqlovchi testlar majmui, har bir mavzu bo‘yicha mustahkamlovchi topshiriqlar majmui, testlarni o‘tkazish vaqti va muddati, o‘quvchilarni jalb qiluvchi reklamali tasvirlar, o‘quvchilarda axloqiy mezonlarni shakllanganlik darajasini baholovchi ballar ko‘rsatkichlari. Bunday ilova dasturini tarbiya o‘quv fani o‘qituvchilari shu maktab biriktirilgan oliy pedagogik ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari bilan hamkorlikda tuzishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Kompyuterli dastur asosidagi raqamli texnologiya vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatning shakllanganlik darajasini baholashda choraklik mezonlarga asoslanish kutilgan samarani beradi. Unga ko‘ra, har bir chorak yakunida kompyuterli dastur asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatning shakllanish darajasi o‘rganib baholanadi. Bunday baholash natijasida qaysi o‘quvchida qanday ahloqiy madaniyat shakllanganligi aniqlanadi va axloqiy madaniyatni o‘zlashtirishda murakkablikka duch kelayotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan individual ishlash tajribalari belgilanadi. Shuni eslatib o‘tish joizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari har bir chorakda axloqiy madaniyatni o‘zlashtirish nuqtai nazaridan dinamik rivojlanishda bo‘lishi lozim. Shu sababli bunday baholash jarayonida maktab psixologi va maktab shifokori ham tarbiya o‘quv fani o‘qituvchisi bilan faol ishtirok etadi. Mazkur uch mutaxassisning yagona hulosasi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ahloqiy madaniyati shakllanganlik darajasi baholanadi va keyingi chorakda amalga oshiriladigan tadbirlar belgilanadi. Bunday yondashuv raqamli texnolgiyaning imkoniyatlaridan oqilona foydalanishni keltirib chiqaradi.

Kompyuterli dastur asosida tayyorlangan raqamli texnologiya boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirishning yangi tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini beradi. Bunda kompyuterli dastur asosida amalga oshirilgan o‘rganish natijalari hisobga olinib, yangi tadbirlar majmui shakllantiriladi. Yangi tadbirlar majmuini shakllantirish jarayonida imkon qadar har bir o‘quvchining axloqiy madaniyatni individual

oʻzlashtirishi uchun sharoit va muhit yaratishga qaratiladi. Bunday yondashuv boshlangʻich sinf oʻquvchilarida qiziqish va faollikni keltirib chiqaradi. Shu ma'noda tarbiya oʻquv fani oʻqituvchilari butun oʻquv yili davomida oʻquvchilarda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yoʻnaltirilgan kompyuterli dastur asosidagi raqamli texnologiyani takomillashtirib borishga e'tibor berishi kerak. Albatta, bunda maktab Informatika va axborot texnologiyalari oʻquv fani oʻqituvchisining yordamidan ham foydalanish kutilgan samarani beradi.

Shunday qilib raqamli texnologiya asosida boshlangʻich sinf oʻquvchilarida axloqiy madaniyatning shakllanganlik darajasini baholash mezonlari oʻqituvchi uchun keng imkoniyatlar berish xususiyatiga egadir. Ushbu yondashuv raqamli texnologiya asosida boshlangʻich sinf oʻquvchilarida axloqiy madaniyatning shakllanganlik darajasini oʻrganish va baholashda eng muhim mezonlar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi PQ-232-sonli "Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Qarori. // www.ziyonet.uz

2. Mamatova A.M. Boshlang ʻich sinf o ʻquvchilarining axloqiy madaniyati tarkibi. Pedagog. 2023, 6-son.

3. Mardonov Sh. Jabborova O. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining ma'naviyatini shakllantirishning innovatsion metodikasi. – Toshkent, 2024

4. Jabborova O.M. Boshlang ʻich ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2023